

Saubatov Sanjar Asqar o'g'li  
Qoraqalpoq davlat universiteti  
Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti  
2-kurs magistranti

**Annostatsiya.** *Zulfiya Qurolboy qizi hikoya va romanlari o'zbek adabiyotda yaratilgan asarlar orasida o'zining qiziqarliligi, ta'sirchanligi, hayot haqiqati va insoniy harakterlarni ishonarli gavdalantirganligi hamda turmushning murakkab muammolarini dadil ko'tarib chiqilgani bilan ajralib turadi. Z.Qurolboy qizi asarlarining adabiyotda jiddiy hodisa darjasiga ko'tarilganligi mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.*

**Kalit so'z.** *adabiyot, Zulfiya, nasr, realizm, mafkura, ruhiyat, azob, dard, kasallik, mehr-muhabbat.*

Zulfiya Qurolboy qizi ( Zulfiya Yo'ldosheva) 1966-yil 15- sentabrda Jizzax viloyatining Jizzax tumanida tavallud topgan. Jizzax pedagogika intitutining o'zbek filologiya fakultetini bitirgan. (1990). “Turmush” (2003), “Yovuzlik farishtasi”(2005) kabi kitoblar nashr ettirgan.

Adabiyotshunoslik uzoq vaqt mobaynida badiiy asarni asosan ijtimoiylik nuqtai nazaridan tekshirishga moslashgan bo'lsa, endi mavjud ilmiy qoliplarni tark etgan holda, estetik talablar asosida ruhiy-hissiy sehrlilik hodisa tarzida yondoshishga urinmoqda. Hozirgi ijtimoiy yangilanish davrida inson shaxsiyatida ham katta o'zgarishlar, rivojlanish yuz bermoqdaki, natijada o'quvchilarning ma'naviy, ruhiy olamini bilish murakkab tus olmoqda, ularning ongida ma'naviy uyg'onish va g'oyaviy yangilanish sezilmoqda. Bu jarayon esa, o'quvchilarga badiiy adabiyot namunalarini taqdim etishning ta'sir kuchini oshirish yo'llarini izlashni taqozo etadi. Garchi badiiy asarlar tahlili bo'icha o'zbek adabiyotshunosligida keng ko'lamdagi ilmiy tadqiqotlar e'lon qilingan bo'lsada, hozirgacha o'quvchiga asarni mavzu dolzarbligiyu ijtimoiy ahamiyati jihatidan tekshirib, taqdim etish hollari kamaymayotir. Badiiy asar tadqiqida birinchi navbatda badiiy matnning o'zigina turishi, hych bir ijodkorning yoshi, qaysi partiyaga mansubligiyu jinsining, qanchalar tajribaga ega ekanligining butkul ahamiyatsizligi hamisha ham yodda turmaydi. Endi adabiyotshunoslik oldidagi vazifalar o'zgardi: asarni matndan kelib chiqqan holdagina tadqiq etish va matn tabiatiga mos tarzda xulosalash.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti janrlar borasida shakllangan tasavvurlarni buzishi, yaratilayotgan asarlarning nazariy qonun-qoidalarga to'g'ri kelmasligi bilan harakterlanadi. Zero, ijod erkinligi faqat “nimani yozish”ga emas, balki, “qanday yozish”ga ham tegishlidir. Istaganiday yozish erki ijodiy tajribalar o'tkazish imkonini beradi. Bugungi kun adabiy jarayonining salmoqli qismini nasr tashkil qiladi. Hozirgi

o'zbek nasri taraqqiyotiga katta hissa qo'shayotgan ijodkorlardan biri Zulfiya Qurolboy qizi bo'lib, so'nggi yillarda uning bir qancha e'tiborga sazovor asarlari yuzaga keldi. Zulfiya Qurolboy qizi hikoya va romanlari o'zbek adabiyotida yaratilgan asarlar orasida o'ziing qiziqarliligi, ta'sirchanligi, hayot haqiqati va insoniy harakterlarni ishonarli gavalantirganligi hamda turmushning murakkab muammolarini dadil ko'tarib chiqqanligi bilan ajralib turadi. Muallif asarlarida o'quvchi ko'nikkan qahramonlar, voqyealar rivoji va intiho uchramaydi. Bu asarlar o'zbek adabiyotida e'tibor bermaslik mumkin bo'lmagan badiiy hodisaga aylandi, o'z o'quvchilariga ega bo'ldi. Unga xos xususiyatlarni tadqiq qilish, uning ichki mexanizmi, badiiyatini ta'minlagan omillarni aniqlash hozirgi adabiyotni to'la anglash imkonini beradi. Shu zarurat tufayli mazkur mavzuga qo'l urildi.

Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub “Armon asirasi”, “Mashaqqatlar girdobi” romanlari, “Ayol”, “Hilola”, “O, hayot!”, “Tafakkur”, “Ikki manzil”, “Ko'lanka” va shu kabi hikoyalari korib chiqildi.

Iste'dodli yozuvchi Zulfiya Qurolboy qizi ma'naviyatimiz xazinasini adabiyotda jiddiy hodisa darajasiga ko'targan bir qator asarlari bilan boyitayotgan bo'lsa-da, adabiyotshunoslikda bugungi kungacha uning ijodini mufassal tahlil etuvchi tadqiqotlar yaratilganicha yo'q. Shu vaqtga qadar yozuvchi asarlari yuzasidan Umarali Normatov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Nusratilla Jumaxo'ja, Xurshid Do., stmuhammad singari adabiyotshunos olimlarning maqolalari chop etilgan, Nilufar Haydarova “Armon asirasi” romanini Jenni Erpenbek qalamiga mansub “Makon istab” romani bilan qiyoslagan, Isroilova Saodat adiba asarlarida misolida millat ma'naviyatidagi evrilishlarning hozirgi hikoyachilikdagi o.,rnini tekshirgan malakaviy bitiruv ishlari mavjud. Jumladan, Nilufar Haydarova olmon yozuvchisi Jenni Erpenbekning “Makon istab” romani bosh qahramoni bilan Zulfiya Qurolboy qizi romani “Armon asirasi” qahramoni Hulkar Armon orasida bog'liqlik mavjud deb hisoblaydi. Nilufarning fikricha, Jenni Erpenbek qahramoni real urush oqibatida o'z makonidan, Vatanidan ayrilgan bo'lsa, Zulfiya Qurolboy qizi qahramoni ko.,ngil istagi va tirikchilik orasidagi azaliy, ko'zga ko'rinmas jang tufayli o'z makonidan judo bo'lgan. Har ikki roman asosini insonlarning tug'ilib o'sgan go'shasiga talpinish, faqat o'ziniki bo'lgan go'shasini yaratish istagi tashkil qiladi, deydi tadqiqotchi. Isroilova Saodat esa adiba hikoyalarni tahlilga tortib, ulardagi shafqatsizlik, qahramonlarning fojeali taqdiri Zulfiya Qurolboy qizi ijodi o'ziga xosligini ta'minlashini ta'kidlaydi. Biz har ikki tadqiqotchi fikrini inkor etmagan holda, adiba “Armon asirasi” romanida Hulkar Armondan ham ko'ra Nasiba hamda Donish zimmasiga asosiy yukni ortganini, makonini dastlab Donish yo'qotganini, shuning oqibatida Nasiba ham tinchini yo'qotganini, ularning farzandlarini kutayotgan kelajak mavhum qolgani esa makonsizlik davom etishi mumkinligini ko.,rsatishini ta'kidlashni istardik. Isroilova Saodat qahramonlar tasviridagi shafqatsizlik haddan ziyodligini, bu o'quvchini charchatishini aytadi. Bizningcha esa, ayni jihat Zulfiya Qurolboy qizi asarlari hayotiyiligini ta'minlaydi,



o'quvchini sergaklantiradi, umuman, adiba ijodi o'ziga xosligini belgilaydi. Zulfiya Qurolboy qizining badiiy ijod olamiga kirib kelganidan tortib, to bugungi kungacha bo'lgan ijodiy kamolotini tadrijiy tarzda tadqiq etish orqali adibaning nasriy asarlaridagi o'ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari sabablarini ko'rsatib berishga urinildi. Xususan, muallifning "Armon asirasi", "Mashaqqatlar girdobi" romanlari va bir necha hikoyalari misolida yosh yozuvchi nasriga xos ko'plab asosiy xususiyatlar aniqlandi. Shunday xususiyatlar jumlasiga yozuvchining ayol qalbini va karakterini chuqur badiiy tadqiq qilib, ular to'g'risidagi haqiqatni ifodalashga intilishi, syujetning qiziqarliligi va ko'pincha noan'anaviy qurilganligi, hayotning muammolari jasorat bilan yoritilganligi hamda ezgu ijtimoiy ideallar tasdiqlanganligi kabi belgilar kiradi.

Mazkur xususiyatlar Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol", "Hilola", "O, hayot!", "Tafakkur", "Ikki manzil", "Ko'lanka", "Mashaqqatlar girdobi" asarlari tahlili vositasida yuzaga chiqarildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik. 1-jild. Akademik B.Nazarov tahriri ostida. – T., 1991.
2. Anri Barbyus. Zolya v 1932. V knige "Nazıvat veŋci svoimi imenami". – M.: 1986, S. 76.
3. Aristotel. Poetika. – T.: "Adabiyot va san'at", 1980.
4. Ahmedova. M. Xulio Kortasar: XX asr ma'naviy hayotidan bir lavha. Jahon adabiyoti. 2009 yil, oktyabr.
5. Boboev T. "Adabiyotshunoslik asoslari". Toshkent. 2002, 470-471 betlar.
6. Boltaboev H. Nasr va uslub. – T.: "Fan", 1992.
7. G'afurov I. O'ttiz yil izhori. – T.: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1981-1983.